

QIZ BOLALAR SARAFANINI KONSTRUKSIYASINI ISHLAB CHIQUISH

Ibrohimov Shaxboz Hasanboy o'g'li
Abdumutalova Azizaxon Maxamadjon qizi
Farg'ona Politexnika instituti IV talabasi

Annatsiya: *Ushbu tezisda qiz bolalar sarafanini konstruksiyasini ishlab chiqish haqida ma'lumot keltirildi. Avvaliga sarafan uslublari bilan tanishib, keyingi navbatda zamonaviy mavsumbop sarafan modeli tanlab olindi va konstruksiyasi ishlab chiqildi.*

Kalit so'z: *sarafan, basis setka, konstruksiya, klassik uslub, safari uslubi, sport uslubi*

РАЗРАБОТКА КОНСТРУКЦИИ САРАФАНЫ ДЛЯ ДЕВОЧКИ

Аннотация: *В данной дипломной работе были представлены сведения о развитии конструкции сарафана для девочек. Сначала знакомилась с фасонами сарафанов, затем подбиралась современная сезонная модель сарафана и разрабатывалась конструкция.*

Ключевые слова: *сарафан, основная сетка, конструкция, классический стиль, стиль сафари, спортивный стиль.*

DEVELOPMENT OF THE CONSTRUCTION OF A GIRLS' SARAFANA

Annotation: *In this thesis, information was provided about the development of the construction of a sundress for girls. First, getting acquainted with the styles of sundresses, then a modern seasonal sundress model was selected and the construction was developed.*

Key words: *sundress, basic net, construction, classic style, safari style, sports style*

Sarafan - bu ayollarning kiyimi, bu yengsiz ko'ylak. Sarafan uzoq vaqtdan beri moda bo'lib, klassik ko'ylaklar va shim kostyumlariga muqobildir.

Har bir ayolning garderobida asosiy kiyim bo'lishi kerak. Sarafan libosi deyarli har bir qizning "arsenalida" bo'lgan modeldir. Sarafanlar uchun ko'plab variantlar mavjud, modellar yoz va qish, beparvo va ishbilarmonlik, kundalik va bayramona.

1-rasm



a

b

c

d

e

f



Klassik uslubdagi bahor va kuz mavsumi uchun mo'ljallangan qiz bolalar sarafani, yarim jun matodan, va yana kostyumbop matolardan tikiladi {a}

Safari uslubidagi qiz bolalar sarafani, kostyumbop gazlamar guruhiga kiruvchi kamvol matodan tikiladi {b}


Sport uslubidagi qiz bolalar sarafani bo'lib, jinsi matosidan tikiladi {c}

Klassik uslubdagi yoz mavsumi uchun qiz bolalar sarafani bo'lib, krep matosidan tikiladi {d}

Zamonaviy uslubdagi qish mavsumi uchun mo'ljallangan qiz bolalar sarafani bo'lib, jun gazlamadan va yana shers matosidan tikiladi {e}

Zamonaviy uslubdagi yoz mavsumi uchun mo'ljallangan qiz bolalar sarafani shifon yoki boshqa oqimli matolardan tikiladi {f}





Ushbu tanlangan modelim ham bahor va kuz mavsumi uchun mo'ljallangan, uzunligi tizzadan yuqorida bo'lgan qizlar sarafani. Ushbu sarafan ikki bo'lakdan ya'ni old va ort bo'laklardan iborat. Silueti to'g'ri bichimli etak tomon kengaygan. Old bo'yin o'mizi ko'krak chizig'idan pastroqqacha uchburchak shaklida o'yilgan. Ort bo'yin o'mizi ham uchburchak shaklida o'yilgan. Ushbu sarafan hech qanday ortiqcha bezaklar bilan bezatilmagan. Bu turdagi sarafanni o'qishga kiyishga tavsiya etilganligi sababli qora rangni tanlab oldim. Bu modelni tanlashimdan asosiy maqsad birinchi navbatda uning rangi va qulayligi juda ham yoqdi. Ushbu model rangi qora rangda. Qora sarafan - barcha holatlar uchun universal kiyim hisoblanadi. Ish joyi va o'qish joylariga bemaolol kiyib borishlari mumkin. Bu modelning yana bir qulaylik tarafi old qismi ham orqa qismi ham yaxlit bichimli bo'lganligi sababli, konstruksiyalash jarayoni ham bizga katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Hech qanday ortiqcha bezaklar bilan bezatilmagan.

Qiz bolalar sarafanining konstruksiyasini qurish uchun tavsiya etiladigan o'lchamlar

№	O'lchamlar nomi	Shartli belgisi	Qiymati (sm)
1	2	3	4
1	Bo'yin yarim aylanasi	Ssh	17.7

2	Ko'krak yarim aylanasi 1	Sg	42,9
3	Ko'krak yarim aylanasi 2	Sg ₂	46,4
4	Ko'krak yarim aylanasi 3	Sg ₃	44
5	Ort belgacha masofa	Dts	42,7
6	Ort kenglik	SHs	17,3
7	Old belgacha uzunlik	Dtp	43,2
8	Ko'krak balandligi	Vg	25,4
9	Markazlar orasidagi masofa	Mg	9
10	Yelka chizig'i uzunligi	Dp	13
11	Sarafan uzunligi	Di	80


AKni qurish va hisobi

/R	Konstrukтив kesma	Hisob formulasi	Qiymat (sm)
	A H	Buyum uzunligi A H = Di	80 sm
	G G ₁	Sarafan kengligi G G ₃ = Sg+Pg = 44+4	48 sm
	A T	Belgacha masofa A T = Dts = 42,7	42,7 sm
	A G	Ko'krak chizig'igacha masofa A G = Sg ₃ : 3 + 5 = 44 : 3 + 5 = 19,5	19,5 sm
	T B	Beldan bo'ksa chizig'igacha masofa Dts * 0,5 -2 = 19,5	19,5 sm
	G G ₂	G G ₂ = Sg ₃ : 3 + 3 = 17,5	17,5 sm
	G ₂ G ₃	G ₂ G ₃ = Sg ₃ : 4 = 11	11 sm
	A SH	A SH = S _{SH} : 3 + 0,5 = 6,5	6,5 sm
	SH ₁	SH ₁ P ₂ = SH P = 13	13


	P_2		3 sm
	G_1 SH_2	$G_1 SH_2 = C_{r3} : 2 + 1 = 23$	2 3 sm
	SH_2 SH_3	$SH_2 SH_3 = S_{SH} : 3 + 0,5 = 6,5$	6, 5 sm
<p>Ort bo'yin o'mizi uchun SH_2 nuqtadan yonga 3 sm yurib 3 nuqta bilan belgilaymiz. Pastga esa G nuqttagacha yani 19,5 sm yuramiz. So'ngra 3 va G nuqtalarni uchburchak shaklda tutashtiramiz</p>			
<p>Old bo'yin o'mizi uchun SH_3 nuqtadan yonga 3 sm yurib 3 nuqtani belgilaymiz. Pastga esa SH_1 nuqtadan pastga 28 sm yurib Z nuqta qo'yamiz. So'ngra 3 va Z nuqtalarni uchburchak shaklida tutashtiramiz</p>			
<p>Qo'ltiq o'mizi uchun G_4 nuqtadan pastga 8 sm yonga esa 3 sm dan yurib qo'ltiq o'mizini o'yamiz</p>			


Asosiy va hosila detallari andozalarining chizmasi

BAZIS TO'RI



SARAFAN KONSTRUKSIYASI





Yelka vitochkasi yopilib

Vitochka ko'chirildi va modellashtirildi

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu tezisimni sarafan konstruksiyasini ishlab chiqishga bag'ishladim. Avvaliga sarafanning uslublari haqida o'rganib chiqdim. Keyingi navbatlarda madel tanladim va sarafanni qulayliklari haqida yoritdim. Ayollar sarafanini tahlil qilish davomida turli uslublarni o'rgandim va ular orasidan klassik uslubdagi ayollar sarafanini tanlab olib, konstruksiyasini ishlab chiqdim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. H.H.Komilova, J.S.Ergashev “Materiallarni konfeksiyalash” fanidano`QUV- USLUBIY MAJMUA Namangan-2019
2. Madina Egamberdi Qizi Usmonova (2022). TRANSFORMATSIYA USLUBLARIDAGI KIYIMLARNI LOYIHALASH MASALLALARI. Scientific progress, 3 (4), 486-493.
3. Xojiyev A, Xoshimova M. “Ipak matolaridan foydalanib, ayollar koftasini tikish texnologiyasini takomillashtirish”. // “Fan va texnologiyalar taraqqiyoti”. Ilmiytexnikaviy jurnal. №8/2020. 123-128-bet.